

**RIVOJLANISHIDA MURAKKAB NUQSONLI BOLALARING SENSOR
TARBIYASINI AMALGA OSHIRISH**

Ikromova Farangis Muzaffar qizi

Maxsus pedagogika: logopediya yo‘nalishi talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: ushbu maqolada rivojlanishida murakkab nuqsonli bolalardagi sensor tarbiyasini amalga oshirish hamda bilish jarayonlarining bir nechta turlari to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘z: Sezgi, idrok, xotira, tasavvur, sensor tarbiya, borliq, tuyg‘u, hissiy bilish qobiliyat, nutq, psixika, tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya.

Аннотация: в данной статье представлена информация о реализации сенсорного образования у детей со сложными отклонениями в развитии и несколькими типами познавательных процессов.

Ключевые слова: Интуиция, восприятие, память, воображение, сенсорное образование, существование, чувство, эмоциональное познание, речь, психика, изобразительная деятельность, физическое воспитание

Abstract: This article provides information on the implementation of sensory education in children with complex developmental disabilities and several types of cognitive processes.

Keywords: Intuition, perception, memory, imagination, sensory education, existence, feeling, emotional cognition, speech, psyche, visual activity, physical education

Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok qilish tashkil etadi. Bunday tasavvurning aniqligi, to‘laligi sensor jarayonlarining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biron maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir.

“Sensor” so‘zi lotincha “sensus” - “tuyg‘u” - sezgi, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma’nolarini anglatadi. Borliqni bilish, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko‘rish, sezish, va hokazolar yordamida tevarak – atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi. Buyumlarning xususiyatlarini, nomini va ta’rifini anglash, ularni ma’lum bir xossalariiga ko‘ra taqqoslash uchun didaktik o‘yin va qo‘llanmalardan ham foydalanish mumkin. Ular bolalar bilan olib boriladigan xilma-xil mashg‘ulotlar, mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida yaxshigina qo‘srimcha material hisoblanadi.

Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning aqliy, tetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblanadi. Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarini rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim rol egallaydi.

Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta’sir sistemasidir. Sensor tarbiyaning mazmuni

va metodi ruxshunoslik fanida idrok va sezgini rivojlantirish muammosi qanday talqin qilinishi bilan belgilanadi. Bu muammo fanda turlicha hal etilgan bo‘lib, pedagogika tarixida sensor tarbiyaning har xil sistemasi mavjud.

Sensor tarbiya orqali sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantiradi. Borliqni bilish, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko‘rish, sezish va hokazolar yordamida tevarak – atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, hayol kabi jarayonlar hosil bo‘ladi. Elementar (sodda) sensor psixika bosqichi A.N.Leontev ta’rificha - “Tashqi muhit - obyektning u yoki bu sifatiga qarab javob beraveradi”. Bu oddiy sezish bosqichidir. K.E.Fabri fikricha, oddiy sensor psixikaning ikki: past va yuqori darajasiga ajratiladi.

Ma’lumki akademik I.P.Pavlov ta’limotiga ko‘ra har analizator uch qismidan iborat:

- 1) tashqi ta’sirlarni qabul qilib oluvchi periferik qism (buni odatda retseptor deb yurgiziladi); 2) taassurotni markazga olib boruvchi (afferent) va markazdan tegishli javob reaksiyasini olib qaytuvchi (efferent) nerv tolalari; 3) analizatorlarning orqa yoki bosh miyadagi markaziy qismi.

Sezgi mana shu qismlarning yaxshi va ravon ishlashiga bog‘liqdir. Analizatorlarning bironqa qismi ishdan chiqsa, sezish bo‘lmaydi. Analizatorlarning asosiy vazifikasi organizmga ta’sir etayotgan turli qo‘zg‘ovchilarni ayrim bo‘laklarga ajratishdan, ya’ni analiz qilishdan iboratdir. Shuning uchun ham sezgi organlari analizatorlar deb ataladi. Sezgi va idrokning rivojlanishi boshqa, tobora qiyinroq bo‘lgan bilish jarayonlarning (xotira, hayol, tafakkur) paydo bo‘lishi uchun zamin yaratadi. Rivojlantirilgan sensorika zamonaviy odamning amaliy faoliyati takomillashuvining asosidir. Sensor tarbiya haqidagi sobiq sovet psixologlarining fikri burjuachilarining fikrini psixologik asoslaridan prinsipial tarzda farq qiladi.

Rus psixologlarining nuqtai nazarlari bo‘yicha sensor rivojlanish yangi, bolada ilgari bo‘lmanan sensor jarayonlarni shakllantirishdir. Albatta, analizatorlarning takomillashuvi (eshitish, ko‘rish, teri tuyish, hid bilish va b.) sezgi va idrok rivojlanishining zarur shartlaridan va uning rolini rad etish mumkin emas. Lekin, bu faqat sensor rivojlanishining organik imkoniyati sharti, biroq bularning barchasi sezgi tajribasini egallamay turib sodir bo‘lmaydi. Tafakkur, nutq sensor tajriba ortishi natijasidir. Sensor etalon bo‘lib musiqiy tovushlar (do,re,mi...) ona tilining tovushlar sistemasi, geometrik figura, ranglar bo‘lib hisoblanadi. Sensor namunalarni o‘lchov tizimi tarzida egallah idrokni sifat jihatidan o‘zgartiradi.

Ko‘rgazmali qurollar, predmetlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish bolalarni sensor tarbiyasini tarbiyalaydi. Rivojlanishida murakkab nuqsonli bolalarni o‘qitish jarayonida o‘ziga xos xususiyatlarini, kamchiliklarini bartaraf etish mumkin. Sensor tarbiyasini rivojlantirishga tasviriy faoliyat darslari samarali natija beradi. Tasviriy faoliyat ijod qilishga sharoit yaratadi, obyektning katta – kichikligi, ranggi , formasi, fazoviy joylashishini bola taqqoslab ko‘rib idrok etadi.

Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalarida sensor tarbiyaga katta e'tibor berilmoqda va ko'p joylarda Montessori metodikasi ishlatilmoqda. Ushbu metodika maxsus muassasalarda poydevor sifatida ishlatilmoqda.

Mustaqillik yillarida aholining turmush farovonligini oshirish, sog'ligini mustahkamlash, jismoniy tarbiya va sportni aholi o'rtasida ommalashtirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan XV Paralimpiya o'yinlarida, 160 dan ortiq davlatlarning to'rt mingdan ziyod vakillari g'oliblik uchun kurashgan bahsda, O'zbekistonlik 32 nafar paralimpiyachilar beshta sport turi bo'yicha qatnashib, 31 ta medalni qo'lga kiritdi. Sportchilar soniga nisbatan medallar jamg'arish borasida mamlakatimiz delegatsiyasi 96,8 foiz natija bilan XV Paralimpiya o'yinlarida eng yaxshi ko'rsatkichni qayd etdi. O'zbekistonda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlari ichida birinchilardan bo'lib "Nogironlarning ijtimoiy himoyasi haqida"gi nogironlarning huquqlarini o'z ichiga olgan huquqiy baza yaratildi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1-dekabrdagi PF-5270-son farmoni qabul qilindi. Farmonga ko'ra, zamonaviy tibbiyat va ilm-fanning ilg'or yutuqlari, diagnostika, davolash va reabilitatsiyaning sifat standartlari asosida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, sog'lomashtirish xususiyatidagi chora-tadbirlarni yaxshilash, sog'lom va faol turmush tarzini olib borish madaniyatini targ'ib qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash sohasidagi, shu jumladan nogironlikni belgilashning samarali mezonlarini qo'llashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish vazifasi alohida belgilab qo'yildi. Maqsadi: sensor tizimida nuqsoni bo'lgan bolalarning funksional va jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini kompleks nazorat qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.Y. "Logopediya".- T.: Faylasuflar jamiyati,2007.
2. Muborak, D., & Farangis, I. (2022). NUTQ KAMCHILIKLARINI PAYDO BO 'LISHIDA ARTIKULYATSION APPARAT HOLATINI O 'RGANISH ZARURATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 366-370.
3. V.S.Raxmanova Maxsus pedagogika. T. 2004-yil
4. Dehqanova, M., & To'raqulova, D. (2022). DAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O 'QUVCHILARNI INKLUYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH. Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(26), 31-34.

5. Qodirova, F. U., Kobilova, Sh. X. (2021). Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'limga jalg etilgan o'quvchilar hayot xavfsizligini ta'minlash shart-sharoitlari. Muammo va ularning yechimlari, 2(2), 85-86.

6. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 389-393.